



**Gulmira RUSTAMOVA,**  
Magistrant, Osiyo Xalqaro universiteti Buxoro, O'zbekiston  
E-mail: [gulmirarustamova982@gmail.com](mailto:gulmirarustamova982@gmail.com)

*Pedagogika fanlar doktori, professor X.Xudoyqulov taqrizi asosida*

### ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalarning funksional xususiyatlari lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda derivatsion affikslarning semantik, struktur va uslubiy imkoniyatlari, ularning til tizimidagi o'rni hamda nutq jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, so'z yasovchi qo'shimchalarning yangi leksik birliklar yaratish, til boyligini oshirish va kommunikativ jarayonni samarali tashkil etishdagi roli ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** So'z yasovchi qo'shimcha, derivatsiya, affiks, semantika, o'zbek tili, funksional xususiyat, leksik birlik.

### FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF DERIVATIONAL AFFIXES IN THE MODERN UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article analyzes the functional characteristics of derivational affixes in the modern Uzbek language from a linguistic perspective. The study highlights the semantic, structural, and stylistic potentials of derivational affixes, their role in the language system, and their significance in the speech process. It also examines, on a scientific basis, the role of word-forming affixes in creating new lexical units, enriching the vocabulary, and ensuring the effective organization of the communicative process.

**Key words:** Derivational affix, derivation, affix, semantics, Uzbek language, functional characteristics, lexical unit.

### ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ АФФИКСОВ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье с лингвистической точки зрения анализируются функциональные особенности словообразовательных аффиксов в современном узбекском языке. В исследовании раскрываются семантические, структурные и стилистические возможности деривационных аффиксов, их роль в языковой системе, а также значение в процессе речи. Кроме того, на научной основе рассматривается роль словообразовательных аффиксов в создании новых лексических единиц, обогащении словарного состава языка и эффективной организации коммуникативного процесса.

**Ключевые слова:** Словообразовательный аффикс, деривация, аффикс, семантика, узбекский язык, функциональные особенности, лексическая единица.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda so'z yasalishi tizimi tilning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalar tilning leksik boyligini kengaytirish, yangi tushunchalarni ifodalash hamda nutqning ifodaviy imkoniyatlarini oshirishda muhim lingvistik vosita hisoblanadi. O'zbek tilining agglutinatib tabiati qo'shimchalar tizimining faol va sarmahsul bo'lishini ta'minlaydi, bu esa derivatsion jarayonlarning keng rivojlanishiga zamin yaratadi.

So'z yasovchi qo'shimchalar orqali mavjud o'zak negizida yangi leksik birliklar hosil qilinadi, bu jarayon esa tilning dinamik rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Shu jihatdan, derivatsion affikslar nafaqat morfologik birlik sifatida, balki semantik va funksional jihatdan ham muhim ilmiy tadqiqot obyektiga aylanadi. Ularning yordamida so'zlarning ma'no doirasi kengayadi, yangi tushunchalar tizimi shakllanadi va kommunikativ ehtiyojlar samarali qondiriladi.

Til tizimida so'z yasovchi qo'shimchalarning funksional xususiyatlarini o'rganish, bir tomondan, tilning ichki imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, nutq jarayonida ularning amaliy qo'llanish darajasini belgilash imkonini beradi. Bu esa tilshunoslikda derivatsiya jarayonini kompleks yondashuv asosida o'rganishni taqozo etadi. Shuningdek, so'z yasovchi qo'shimchalarning semantik, struktur va uslubiy jihatlarini tahlil qilish tilning

funksional stilistik imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Hozirgi globallashuv sharoitida tilning boyligi va ifodaviyligi uning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalarning funksional xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot tilning nazariy asoslarini boyitish bilan birga, uning amaliy qo'llanishini takomillashtirishga ham xizmat qiladi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy tilshunoslikda so'z yasalishi masalasi derivatologiya doirasida keng va chuqur o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalarning nazariy va amaliy jihatlarini ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan bo'lib, ular tilning morfologik, semantik va funksional tizimini tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda so'z yasovchi qo'shimchalar tilning leksik boyligini oshiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida talqin qilinadi. Ular orqali yangi leksik birliklar hosil qilinishi, mavjud so'zlarning ma'no doirasining kengayishi va nutqning ifodaviyligi ortishi qayd etiladi. Xususan, tadqiqotchilar derivatsion affikslarning semantik yuklamasi, ularning turkumlararo o'zgarishlardagi o'rni va affiksial polisemiyaning til tizimidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadilar [2].

Shuningdek, ayrim ilmiy ishlarda so'z yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari ham tahlil qilinib, ularning badiiy, ilmiy va publitsistik nutqdagi qo'llanishi o'rganilgan. Natijalarga ko'ra, derivatsion qo'shimchalar matnning uslubiy rang-barangligini ta'minlash, emotsional-ekspressiv ma'no hosil qilish hamda nutqning rasmiy yoki norasmiylikini belgilashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi[3].

Bundan tashqari, qiyosiy tilshunoslik yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlarda turli tizimli tillarda so'z yasalishining umumiy va farqli jihatlari o'rganilib, o'zbek tilidagi derivatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Bu esa o'zbek tilining agglutinatib tabiiati so'z yasovchi qo'shimchalarning yuqori darajada produktivligini ta'minlashini ko'rsatadi [4].

Pedagogik yo'nalishdagi adabiyotlarda esa so'z yasovchi qo'shimchalarni o'qitish metodikasi, ularni o'quvchilarga ongli ravishda o'zlashtirish yo'llari ham yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda qo'shimchalar yordamida so'z ma'nosini o'zgarishini tushuntirish, ularning nutqdagi qo'llanishini amaliy mashqlar orqali mustahkamlash muhimligi ta'kidlanadi [5]. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalar morfologik tizimning muhim elementi bo'lish bilan birga, tilning semantik va funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy omillardan biridir. Shu bilan birga, ularning kompleks – ya'ni semantik, struktur va funksional jihatdan tizimli o'rganilishi hali ham dolzarb ilmiy vazifa sifatida qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda zamonaviy o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalarning funksional xususiyatlarini o'rganish uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini umumilmiy va maxsus lingvistik metodlar tashkil etadi.

Avvalo, tavsifiy metod yordamida so'z yasovchi qo'shimchalarning umumiy xususiyatlari, ularning til tizimidagi o'rni va vazifalari aniqlab berildi. Bu metod orqali derivatsion affikslarning struktur tuzilishi, qo'llanish doirasi va morfologik xususiyatlari tizimli ravishda tavsiflandi.

Shuningdek, struktur-semantik tahlil metodi asosida qo'shimchalarning ma'no hosil qilishdagi roli, ularning semantik yuklamasi hamda yangi leksik birliklar yaratishdagi ishtiroki o'rganildi. Ushbu yondashuv affikslarning turli kontekstlarda qanday ma'no kasb etishini aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy metod yordamida so'z yasovchi qo'shimchalarning turli ko'rinishlari, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Bu esa derivatsion birliklarning funksional imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, kontekstual tahlil metodi qo'llanilib, so'z yasovchi qo'shimchalarning real nutq jarayonidagi qo'llanishi, ularning uslubiy va kommunikativ ahamiyati o'rganildi. Ushbu metod orqali qo'shimchalarning badiiy, ilmiy va publitsistik matnlardagi funksional xususiyatlari aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida, shuningdek, induktiv va deduktiv yondashuvlardan ham foydalanildi. Induktiv metod orqali alohida misollar asosida umumiy xulosalar chiqarilgan bo'lsa, deduktiv metod yordamida mavjud nazariy qarashlar asosida aniq lingvistik holatlar tahlil qilindi.

Natijada, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar so'z yasovchi qo'shimchalarning semantik, struktur va funksional xususiyatlarini har tomonlama yoritish hamda ularning zamonaviy o'zbek tilidagi o'rni ilmiy asosda aniqlash imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalar tilning leksik tizimini boyituvchi va uning funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida

aniqlanishicha, derivatsion affikslar yordamida yangi so'z birliklari hosil qilinadi, mavjud so'zlarning ma'nosi kengayadi hamda nutqning ifodaviyligi ortadi. Masalan, ish o'zagiga -chi qo'shimchasi qo'shilishi natijasida ishchi so'zi hosil bo'lib, u kasb egasini bildiradi; bilim o'zagiga -li qo'shimchasi qo'shilganda bilimli shakli yuzaga kelib, shaxsning ma'lum sifatga egaligini ifodalaydi. Shu kabi uy → uysiz, paxta → paxtakor misollari qo'shimchalarning semantik yuklamasi orqali yangi ma'no hosil qilishini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'z yasovchi qo'shimchalar o'zak bilan birikib, derivatsion zanjir hosil qiladi va bu orqali tilning produktivligi ortadi. Masalan, yoz o'zagidan yozuvchi, yozuv, yozma, yozish kabi turli leksik birliklar hosil bo'ladi. Bu jarayon tilning ichki imkoniyatlari keng ekanligini va bir o'zak asosida ko'plab yangi so'zlar yaratilishini isbotlaydi.

So'z yasovchi qo'shimchalar turkumlararo o'zgarishlarni ham ta'minlaydi. Jumladan, o'qimoq → o'qish (fe'ldan ot), yaxshi → yaxshilik (sifatdan ot), rang → ranglamoq (otdan fe'l) kabi shakllar tilning grammatik moslashuvchanligini namoyon etadi. Bu esa qo'shimchalarning nafaqat yangi so'z yasash, balki so'z turkumlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlashdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, derivatsion affikslar nutqning uslubiy jihatdan boyishini ham ta'minlaydi. Masalan, qiz → qizcha, bola → bolajon shakllarida qo'shimchalar emotsional-ekspressiv ma'no hosil qilib, nutqqa mehr, yaqinlik va hissiy bo'yoq beradi. Ilmiy va publitsistik uslubda esa kitob → kitobxon, ilm → ilmiy kabi birliklar aniqlik va terminologik ifodani kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ayrim qo'shimchalar affiksial polisemiyaga ega bo'lib, turli kontekstlarda turlicha ma'no ifodalaydi. Masalan, -chi qo'shimchasi ishchi (kasb egasi) va tarixchi (mutaxassis) shakllarida qo'llansa, -lik qo'shimchasi yoshlik (davr) hamda do'stlik (abstrakt tushuncha) kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu holat qo'shimchalarning semantik imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalar tilning asosiy derivatsion mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Ular yangi leksik birliklar yaratish, semantik maydonni kengaytirish, nutqning ifodaviyligini oshirish va kommunikativ jarayonni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalar til tizimining eng muhim va faol elementlaridan biri hisoblanadi. Ular orqali yangi leksik birliklar hosil qilinadi, mavjud so'zlarning ma'no doirasi kengayadi hamda tilning ifodaviy imkoniyatlari sezilarli darajada oshadi. Derivatsion affikslar nafaqat morfologik vosita, balki semantik va uslubiy jihatdan ham muhim funksiyalarni bajaradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida turli so'z turkumlariga mansub birliklar hosil qilinib, tilning grammatik va leksik tizimi boyitiladi. Ularning semantik imkoniyatlari keng bo'lib, bir affiks turli kontekstlarda turlicha ma'no ifodalashi mumkin. Bu esa affiksial polisemiyaning mavjudligini tasdiqlaydi va tilning ichki imkoniyatlari naqadar boy ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, so'z yasovchi qo'shimchalar nutqning uslubiy rang-barangligini ta'minlashda, emotsional-ekspressiv ma'no yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular badiiy, ilmiy va publitsistik uslublarda turlicha funksional yuklama bilan qo'llanib, kommunikativ jarayon samaradorligini oshiradi.

So'z yasovchi qo'shimchalar zamonaviy o'zbek tilining rivojlanishida muhim lingvistik vosita sifatida xizmat qiladi. Ularni chuqur o'rganish tilshunoslik nazariyasini boyitish bilan

birga, amaliy nutq madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, derivatsion tizimni yanada mukammal tadqiq etish va uni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**Takliflar.** Mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchi, o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchalarni o'rganishni yanada tizimli yo'lga qo'yish zarur. Xususan, derivatsion affikslarning semantik, struktur va funksional xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish lozim.

Ikkinchi, ta'lim jarayonida so'z yasovchi qo'shimchalarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu o'quvchilarning qo'shimchalar yordamida so'z yasash ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni nutqda ongli qo'llashga xizmat qiladi.

Uchinchi, o'zbek tilining zamonaviy rivojlanish jarayonida yangi tushunchalarni ifodalash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish zarur. Bu esa milliy terminologiya va ilmiy tilni boyitishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi, ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ida so'z yasovchi qo'shimchalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish madaniyatini shakllantirish lozim. Bu tilning me'yoriy rivojlanishiga va nutq madaniyatining yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchi, lug'atchilik va korpus lingvistikasi sohasida so'z yasovchi qo'shimchalarning qo'llanishini aks ettiruvchi zamonaviy elektron bazalarni yaratish va takomillashtirish zarur. Bu tilshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, so'z yasovchi qo'shimchalarni chuqur o'rganish va ularni amaliyotga keng joriy etish o'zbek tilining taraqqiyoti, uning ilmiy va kommunikativ salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Shojonova M.A. O'zbek tilida qo'shimchalarning semantik vazifasi // Central Asian Journal of Academic Research. – 2026.
2. Nurmetova B.B. So'z yasovchi qo'shimchalar uslubiyati // Obrazovanie, nauka i innovatsion ideyalar v mire. – 2025.
3. Umarova X.I. So'z yasash tizimining tilshunoslikda o'rganilishi. Derivatsiya va okkozializm // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2024.
4. Hamidova B.R. O'zbek tilida yasovchi qo'shimchalarning ma'no farqlari. – Samarqand, 2023.
5. Atiyazov S.J., Palvonnazarova H.J. Qo'shimchalarning o'ziga xos xususiyatlari. – Nukus, 2022.
6. Asadullayeva D.A. Qutadg'u bilig asarida so'z yasovchi qo'shimchalar // Yangi Renessansda ilm-fan taraqqiyoti. – 2023.
7. O'zbek amaliy filologiyasi istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022.
8. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
10. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2010.